

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ 421

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
Soleyev A.



TANLOV (O'RTA OSIYO XALQLARI ADABIYOTI)
FANINING

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar soha

Ta'lif sohasi: 120000 - Gumanitar fanlar

Ta'lif yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Samarqand – 2019

Tuzuvchi:

Davronova M. – “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasи dotsenti, f.f.n.

Taqrizchilar:


Qobilov U. – “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasи dotsenti, f.f.n.


Tohirova S. – SamDU “Mumtoz adabiyot tarixi” kafedrasи dotsenti, f.f.n.

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasining 2019 yil 3 iyul dagi 12-sonli yig’ilishida muhokamadan o’tdi.

Kafedra mudiri  **Sh. Hasanov**

Fanning ishchi o‘quv dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019-yil 07 № 11 bayonнома)da tasdiqlandi.


Fakultet ilmiy kengashi raisi  **J. Eltazarov**

Fakultet uslubiy kengashi raisi:  **M. Abdiyev**

Kelishildi:

O‘quv uslubiy

boshqarma boshlig‘i

 **B. Aliqulov**

KIRISH

“O’rta Osiyo xalqlar adabiyoti” fanining kursga tegishli qismi O’rta Osiyo xalqlarga tegishli bo‘lgan xalq vakillarining ijodi, ular yaratgan asarlar badiiyati, ularning kelib chiqishi tarixi, genezisi, bir birlaridan farqli tomonlari, hozirgi davr O’rta Osiyo xalqlari adabiyotining yutuq va muammolari, ijodkorlarning o‘ziga xos uslubi kabilar to‘g‘risida ma’lumot beradi. Fanining ahamiyati ular yaratgan asarlarni o‘rganish, turkiy xalqlarning ijtimoiy hayoti va adabiyotini tushunish, badiiy asarlar estetik darajasini aniqlash, ular yaratgan asarlarda tasvirlangan adabiy qahramon va hayot kishisi o‘rtasidagi farqlarni ajratish kabilar bilan belgilanadi. Talabalar bu fanni o‘rganish orqali turkiy xalqlarning kelib chiqishi, ularning tarixi, ular yaratgan asarlarning spesifik belgilarini, hozirgi adabiy jarayon, badiiy asarlarning tarkibiy qismlari, ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon ruhiyati kabilar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Mazkur fan falsafa, tarix, etika va estetika, san’atshunoslik yo‘nalishidagi fanlar bilan uzviy bog‘langan.

O‘quv fanining maqsad va vazifalari

Mazkur fanni o‘qitishning asosiy maqsadi – O’rta Osiyo xalqlar adabiyoti bilan tanishish, badiiy asarlarini tahlil qilish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, boshqa xalqlar yaratgan asarlarga qiyoslash, ular yaratgan asarlar badiiyatini ilmiy asosda o‘rganish, talabalarda adabiyotshunoslarga xos ilmiy – estetik tafakkurni shakllantirish sanaladi. Shu ma’noda quyidagi vazifalar muhimdir:

- O’rta Osiyo xalqlar adabiyotining tarixi, ildizlari, tadrijiy taraqqiyotini tushuntirish;
- ilk obidalar, xalq og‘zaki ijodi, xalq kitoblarining paydo bo‘lishi, turkiy xalqlar adabiyoti rivojining asosiy tamoyillarini o‘rgatish;
- badiiy asarni ijtimoiy – estetik hodisa sifatida tahlil va talqin qilish usullarini o‘rgatish;
- jahon xalqlari adabiyotida O’rta Osiyo xalqlar adabiyotining ahamiyatini baholash ko‘nikmasini shakllantirish.
- talabada estetik didni, badiiy so‘z qudratini his etish ko‘nikmasini hosil qilish;

- adabiy – badiiy va ilmiy – stetik idrokni oshirish, tahlil va tadqiq malakasini hosil etishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarining bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

O‘rta Osiyo xalqlar badiiy adabiyotini o‘rganish, ular tomonidan yaratilagan asarlarning badiiy – estetik qimmatini matnlar orqali tahlil qilish, badiiy asarga baho bera olish, adabiy hodisalarni ilmiy va mantiqiy asosda o‘rganish, badiiy tafakkur va estetik tasavvur uyg‘unligini ta’minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatda badiiy – estetik tafakkur madaniyatni yuksaltirish, badiiy va ilmiy tafakkurning yuksak darajadagi ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy - pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol - javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiya va mul’timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni hayotga undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“O‘rta Osiyo xalqlar adabiyoti tarixi” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’lim loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarining o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish,

o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va ikoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z - o‘zini faollashtirishi va o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob’yektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashning mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash. yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash nazarda tutiladi.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O‘qitish vositalari: o‘qitishning an’anaviy shakllari (garslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg’uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg’ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati,

nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. "O'rta Osiyo xalqlar adabiyoti tarixi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "poinport" dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi – adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti tarixi, estetika, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, san'at sosiologiyasi, psixologiya, falsafa fanlarida o'rganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog'langan. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli metodlari orqali o'tkaziladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Talabalarda turkiy xalqlar adabiyoti fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, adabiy tur va janrlar, badiiy asarlarni metodologik nuqtai nazardan tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyatda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita adabiy – ilmiy , ma'naviy - ma'rifiy sohalarda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

«O'rta Osiyo xalqlar adabiyoti tarixi» fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion – pedagogik

texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzARB masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlarining elektron variantlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilg'or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.

"O'rta Osiyo xalqlar adabiyoti tarixi" fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

T/ n	Mavzular nomi	Jami soat	Ma`ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta`lim
1.	O'rta Osiyo xalqlar adabiyotining predmeti, maqsadi va vazifalari. O'rta Osiyo xalqlarning qadimiy adabiy yodgorliklari	10	2	2	2	4
2.	"Go'ro'g'li" hamda "Ota qurqut" asarlari tahlili	10	2	2	2	4
3.	Turk adabiyoti haqida umumiy ma'lumot	10	2	2	2	4
4.	Jaloliddin Rumi ijodi	12	2	4	2	4
5.	Zamonaviy turk adabiyoti	12	2	2	4	4
6.	Ozarbayjon adabiyoti	12	2	2	4	4
7.	Hozirgi davr ozarbayjon adabiyoti	10	2	2	2	4
8.	Qozoq adabiyoti. Folklor va yozma adabiyot	10	2	2	2	4
9.	Qirg'iz adabiyoti	10	2	2	2	4
10.	Chingiz Aytmatov ijodi	12	2	4	4	2
11.	Turkman adabiyoti	8	2	2	2	2
12.	Tatar adabiyoti	8	2	2	2	2
13.	Tojik adabiyoti	8	2	2	2	2
Jami		174	26	32	32	84

Asosiy qism, fanning uslubiy jihatdan ketma-ketligi. Asosiy qismda (ma`ruza) fanni mavzulari mantiquy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Mavzu bo'yicha

talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinadi.

Fanining predmeti maqsadi va vazifalari. “O‘rta Osiyo xalqlar adabiyoti tarixi” fanining maqsadi, uning asosiy vazifalari, tarixiy ildizlari. Xalq kitoblari. Fol’klor an’analarining yozma adabiyotga ta’siri. An’ana va yangilanish. Sharq adabiyotida an’anaviylikning o‘ziga xos xususiyatlari.

Qadimgi turkiy yodgorliklar. Qadimgi turkiy yodgorliklar va ularning o‘rganilishi. Ularning mazmun va shakl xususiyatlari. Qadimgi adabiy yodgorliklarning badiiy tafakkur tarixidagi ahamiyati. Bu adabiy yodgorliklardagi mavzu va g‘oyalar yaxlitligi, obraz va timsollar tasnifi.

Turk mumtoz adabiyoti. Usmonli turk adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi. Turk adabiyotining ilk yozma yodgorliklari. Turk tasavvuf adabiyoti. XVII-XIX asrlar turk adabiyoti. Turk adabiyotida janrlar rivoji. J.Rumi, S.Valad, Yu.Yemre, Ahmadiy va boshqa ijodkorlar ijodi va ular yaratgan asarlarining ahamiyati.

Hozirgi davr turk adabiyotidagi yo‘nalishlar. XX asr turk adabiyotidagi tarixiy muhit. Tanzimat adabiyoti. 20-30, 40-60 yillar turk adabiyoti va ijtimoiy muhit tasviri. Keyingi yillar turk adabiyotining xususiyatlari. O‘rxon Veli Kanik, Melix Javdat Onday, Fozil Hsyunyu Dog‘larja, Rifat Ilgaz, Sabaxiddin Ali, Rashod Nuri Guntekin, Aziz Nesin, Orxan Pamuk, Elchin Safarli ijodi.

Ozorbayjon mumtoz adabiyoti. Ozorbayjon adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotining shakllanishi. Ozorbayjon adabiyotining jahon adabiyoti, o‘zbek adiblari ijodiga ta’siri va aksincha. Ozarbayjon adabiyotidagi ilk badiiy asarlarining paydo bo‘lishi. Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Voqif, Vidodiy ijodi.

Hozirgi zamon ozorbayjon adabiyot. Hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti. Adabiy tanqidiy qarashlar. XX asr ozorbayjon adabiyotidagi qarashlar haqida tushuncha. Ozorbayjon adabiyotida ma’rifatchilik. Adabiy shakl va janrlar, janrlarning takomillashuvi, tur va janrlarning rivoji. XX asr ozarbayjon adabiyotiga oid ilmiy izlanishlar. Hozirgi ozarbayjon adabiyoti. A.Bokixonov, Mirza Fatali Oxundov, Husayn Jovid ijodi.

Qozoq adabiyoti tarixi. Qozoq xalqi tarixi. Xalq og‘zaki ijodi. Qozoq demokratik adabiyoti. Jambul Jabayev, Maxambet O‘timisov, Cho‘qon Valixonov, Ibray Oltinsarin, Abay Qo‘nanboyev, Mustafo Cho‘qayev, Sultonmaxmud Turayg‘urov, Saken Sayfulin, Muxtor Avezov ijodi. Asarlarining badiiyati.

Qirg‘iz adabiyoti tarixi. Qirg‘iz xalqi tarixi haqida. Qirg‘iz xalq og‘zaki ijodi. “Manas” eposi. Qirg‘iz yozma adabiyotining shakllanishi. XX asr qirg‘iz adabiyoti. To‘xtagul Sotilganov, To‘g‘aloq Mo‘lda, Ali To‘qimboyev, Mo‘lda Qilich, Q. Boyamenov, Ch. Aytmatov ijodi. Qirg‘iz adabiyoti. Sharq adabiyoti.

Turkman adabiyoti. Fol’klor va yozma adabiyoti. Turkman xalq og‘zaki ijodi. Turkman yozma adabiyotining shakllanishi. XVII asr turkman adabiyotidagi yo‘nalishlar. XIX asr turkman adabiyoti. XX asr turkman adabiyoti va undagi o‘zgarishlar. Nasimi, Ozodiy, Andalib, Maxtumquli, Mullanafas, Kamina, Miskin Qilich, Berdi Kerboboyev, Xidir Diyayev, Qilich Quliyev ijodi.

“O‘rta Osiyo xalqlar adabiyoti” fani bo‘yicha ma`ruza mashg‘ulotlarining kalendar tematik rejasি

№	Ma`ruza mavzulari (barchasi)	soat
1	O‘rta Osiyo xalqlar adabiyotining predmeti, maqsadi va vazifalari. O‘rta Osiyo xalqlarning qadimiy adabiy yodgorliklari	2
2	“Go‘ro‘g‘li” hamda “Ota qurqut” asarlari tahlili	2
3	Turk adabiyoti haqida umumiy ma`lumot	2
4	Jaloliddin Rumi ijodi	2
5	Zamonaviy turk adabiyoti	2
6	Ozarbayjon adabiyoti	2
7	Hozirgi davr ozarbayjon adabiyoti	2
8	Qozoq adabiyoti. Folklor va yozma adabiyot	2
9	Qirg‘iz adabiyoti	2
10	Chingiz Aytmatov ijodi	2
11	Turkman adabiyoti	2
12	Tatar adabiyoti	2
13	Tojik adabiyoti	2
	JAMI	26

Amaliy mashg‘ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular

Amaliy mashg‘ulotlar talabalarda badiiy tahlil, ilmiy-nazariy muqoyasa, badiiy asarga problematik yondashuv malakasini shallantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar olib borish, tarixiy davrlar mohiyati, poetik o‘ziga xosligini anglashda amaliy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy

mashg‘ulotlarda talabalar jahon adabiyoti muammolari to‘g‘risida amaliy ko‘nikma va malaka hosil qiladilar.

Qadimgi turkiy yodgorliklar. Turkiy xalqlar adabiyotining qadimgi yodgorliklari. “Urxun Enasoy obidalari”, “Avesto”, “O‘g‘uznama” va boshqaqlar bilan tanishish. Turkiy xalqlarga tegishli bo‘lgan afsonalar haqida ma‘lumot.

Turk devon adabiyotida an’anaviylik. Turk xalq og‘zaki ijodi va undagi janrlar tipologiyasi. Turk adabiyotida davrlashtirish masalasi. Yozma adabiyotning shakllanishi. Jaloliddin Rumi, Sulton Valad, Yunus Emre, Ahmadiy va bosh.a diblar ijodi haqida ma`lumot. Asarlarining ahamiyati.

Ozarbayjon mumtoz adabiyoti. Ozarbayjon xalq og‘zaki ijodi namunalari. Ularning g‘oyaviy mazmuni. Qo‘sishiq, ertak, doston, maqol va bosh. haqida ma`lumot. Ozarbayjon mumtoz adabiyoti va undagi yo‘nalishlar. Yozma adabiyotning shakllanishi. Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy va bosh. ijodi.

Qozoq adabiyoti. Qozoq xalq og‘zaki ijodi. Xalq og‘zaki ijodida janrlarning o‘rni va ularning ahamiyati. Qozoq xalq dostonlari. Ularda xalq ozodligi uchun kurash motivlari. Abay ijodi.

Qirg‘iz adabiyoti. Qirg‘iz xalq og‘zaki ijodi haqida ma`lumot. Ertak, maqol va dostonlarning o‘rni va ularning ahamiyati. “Manas” eposi. Obrazlar tizimi. “Manas” eposining o‘rganilishi. Bugungi kundagi ahamiyati.

Turkman adabiyoti. Turkman xalq og‘zaki ijodi haqida ma`lumot. Ertak, qo‘sishiq, doston, maqol va boshqa janrlarning o‘rni va ahamiyati. Xalq og‘zaki ijodining mumtoz adabiyotga ta`siri. Ozodiy, Mahtumqli, Kamina, Andalib va bosh. ijodkorlarning ijodi. Ular yaratgan asarlarining ahamiyati.

Tatar adabiyoti. Tatar xalq og‘zaki ijodi haqida ma`lumot. Ertak, qo‘sishiq, doston, maqol va boshqa janrlarning o‘rni va ahamiyati. Xalq og‘zaki ijodining mumtoz adabiyotga ta`siri.

Tojik adabiyoti. Tojik xalq og‘zaki ijodi haqida ma`lumot. Ertak, qo‘sishiq, doston, maqol va boshqa janrlarning o‘rni va ahamiyati. Xalq og‘zaki ijodining mumtoz adabiyotga ta`siri.

**“Jahon va turkiy xalqlar adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar
calendar - tematik rejasи**

T/n	Amaliy mashg‘ulot mavzulari	soat
1	O‘rta Osiyo xalqlarning eng qadimgi yodgorliklar	2
2	“Qurqut ota” kitobi, “O‘g’iznom” tahlili	2
3	Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy ma’naviy” asari	2
4	Nizomiy Ganjaviyning “Hamsa”si tahlili	2
5	Nozim Hikmat she’riyati	2
6	Rashod Nuri Guntekining “Choliqushi” asari tahlili	2
7	Aziz Nesin hikoyalari tahlili	2
8	Yashar Kamolning “Inja Mamad” romani tahlili	2
9	Muxtor Avezovning “Abay” va “Abay yo‘li” romanlari tahlili	2
10	“Manas” eposi tahlili	2
11	Chingiz Aytmatov qissalari tahlili	2
	JAMI	32

Seminar mashg‘ulatlarda tavsiya etiladigan mavzular

XX asr ozarbayjon adabiyotida romantik oqim

XX asr ozarbayjon adabiyoti haqida ma`lumot. XX asr ozarbayjoz adabiyotida janrlar mikammallashuvi. Roman va dramalarning yaratilishi. Husayn Jovid, Samad Vurg‘un va bosh.adiblar ijodi. Ular yaratgan asarlarning ahamiyati.

Turkiy xalqlar adabiyotida doston janri

Turkiy xalqlar adabiyotida doston janri shakllanishi. Mumtoz dostonchilik. Mumtoz dostonlarda mavzu va sujet.

Yangi davr turk modern adabiyoti

Modern adabiyoti tamoyillari. U.Pamuk ijodi. Jahon adabiyotining turk adabiyotiga ta’siri.

XX asr turkman adabiyoti: yangicha shakllar

XX asr Turkman adabiyoti haqida ma`lumot. Roman, drama janlarining shakllanishi. O. Durdiyev, B. Kerboboyev, X. Dirayev, Q. Quliyev va bosh. ijodkorlar. Ularning asarlari xususida.

Chingiz Aytmatov qissalari poetikasi

Ch. Aytmatov hayoti va ijodi. Adabiyotga kirib kelishi. Hikoyachilik, qissachilik va romanchiligi. Asarlarida tabiat va jamiyat ifodasi.

Yangi davr qozoq adabiyoti an'analar

Qozoq adabiyoti ildizlari, an'analar. Qozoq realistik adabiyotining shakllanishi va taraqqiyoti. Prozaik va lerik asarlar takomili.

Turkiy xalqlar adabiyotida hikoya janri

Hikoya janri va uning xususiyatlari. Turkiy xalqlar adabiyotida hikoyanavislik an'analar. Turkiy xalqlar adabiyotidagi hikoyanavis adiblar.

Turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti janrlari

Turkiy xalqlar mumtoz adabiyotida tur va janrlar masalasi. Mumtoz lirik janrlar taraqqiyoti. Kichik lirik janrlar an' anasi.

“O’rta Osiyo xalqlar adabiyoti” fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlari kalendar-tematik rejasি

T/n	Seminar mashg‘ulotlar mavzulari (barchasi)	Soat
1	Jaloliddin Rumiy “Ichingdagи ichingdadur”asari tahlili	2
2	Rashod Nuri Guntekinning “Tamg‘a” romani tahlili	2
3	Aziz Nesin romanlari tahlili	2
4	Fuzuliy hayoti va ijodi	2
5	Abayning hayoti va ijodi. Abay she’riyati	2
6	Anvar olimjonovning “Mamabet nayzasi” asari tahlili	2
7	O’Ijas Sulaymonov she’riyati	2
8	Abdujalil Nurpeisovning “Qon va ter” trilogiyasi tahlili	2
9	Chingiz Aytmatovning romanlari tahlili	2
10	Maxtumquli hayoti va ijodi. Mahtumquli she’riyati	2
11	Xidir Dirayevning “Qismat” romani tahlili	2
	JAMI	32

Mustaqil ta’lim tashkil etishning shakli va mazmuni

“O’rta Osiyo xalqlar adabiyoti” bo‘yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o‘rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan ta’minlangan. Talabalar auditoriya mashg‘ulotlarida professor-

o‘qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar, asarlarni tahlil etadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan adabiyotlarni, badiiy asarlarni o‘rganadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘s Shimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar yechadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo‘s Shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo’llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar toplash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg’ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“O‘rta Osiyo xalqlar adabiyoti tarixi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 9 ta katta mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi

T /n	Mustaqil ta’lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarilish muddati	Hajmi (soat)
1.	O‘rta Osiyo xalqlari yodgorliklar	O‘rta Osiyo xalqlari yodgorliklarni o‘rganish	1-2 hafta	10
2.	Turk adabiyoti	Ozarbayjon vakillari asarlarini o‘rganish	2-3 hafta	10
3.	Ozarbayjon adabiyoti	Tatar adiblari asarlarini o‘rganish	3-4 hafta	10
4.	Qozoq adabiyoti	Turk ijodkorlari asarlarini o‘rganish	4-5 hafta	12
5.	Qirg‘iz adabiyoti	Qirg‘iz adabiyoti asarlarini o‘rganish	5-6 hafta	12
6.	Turkman adabiyoti	Turkman asarlarini o‘rganish	6-7 hafta	10
7	Tatar adabiyoti	Tatar adabiyoti asarlarini o‘qish	8-9 hafta	10
8	Tojik adabiyoti	Tojik adabiyoti asarlarini o‘qish	10-11 hafta	10

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

Qadimgi turkiy yodgorliklar:

1. Ziyonet.uz internet tarmog’idan “Avesto”ni o‘rganish.
2. H.Homidovning “Avesto fayzlari” asari.
3. M. Jo‘rayev. “O‘g‘uznama” va qadimgi turkiy mifologiya. O‘zbek tili va adabiyoti jurnalni. 2011 yil. 21-28-betlar.
4. Qo‘rqt ota kitobi. “Yoshlik” jurnalni. 1988 y. 5-6-7-sonlar.

Turk adabiyoti:

1. Ziyonet.ru internet tarmog’idan turk adabiyoti tarixini o‘rganish
2. J.Rumi g‘azallaridan yod olish.
3. Yunus Emro g‘azallaridan yod olish.
4. R. N. Guntekining “Yashil kecha” asari.
5. Orhan Pamuk “Istambul – xotiralar shahri” asari.
6. Radiy Fishning “Jalaloliddin Rumiy” asari
7. Yashar Kamolning “Ilonni o‘ldirsalar” qissasi

Ozarbayjon adabiyoti:

1. Ziyonet.uz internet tarmog’idan ozarbayjon xalq maqollarini o‘rganish.
2. Nizomiy Ganjaviyning “Layli va Majnun” asari.
3. Muhammad Fuzuliyning “Layli va Majnun” asari tahlili
4. Anorning “Besh qavatli uyning oltinchi qavati” asari.
5. H. Jovidning “Amir Temur” dramasi.

Qozoq adabiyoti:

1. Ziyonet.uz internet tarmog’idan qozoq adabiyotini o‘rganish.
2. Abay Qo‘nanboyev asarlarini o‘rganish.
3. M. Avezovning “Qarash qarash” asari.

Qirg‘iz adabiyoti:

1. Ziyonet.uz internet tarmog’idan qirg‘iz adabiyotini o‘rganish.
2. “Manas” eposini o‘rganish.
3. Ch. Aytmatovning qissalarini o‘rganish.

4. Ch. Aytmatovning romanlarini o‘rganish.

Turkman adabiyoti:

1. Ziyonet.uz internet tarmog’idan turkman adabiyotini o‘rganish.
2. Maxtumqulining 2 ta she`rini yod olish.
3. X. Diryayevning “Qismat” asarini o‘rganish.
4. “Go‘ro‘g‘li” asarini o‘rganish.

Dasturning informatsion uslubiy ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan:

- adiblar ijodi va ularning asarlarini o‘rganishga bag’ishlangan mavzular zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o‘tkaziladi;
- adiblar asarlarini tahlil qilish obrazlarni o‘rganish hamda badiiy poetik jihatdan tahlilga tortishga bag’ishlangan amaliy mashg’ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash, “ish o‘yini” va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;
- Shoirlar yaratgan she`rlarni badiiy jihatdan tahlilga tortishga bag’ishlangan amaliy mashg’ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni.

“O‘rta Osiyo xalqlar adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar e’lon qilinadi. Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish arajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

Joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg’ulotlarda og’zaki so‘rov, test, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

Oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir marta o‘tkaziladi va shakli o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o‘tkaziladi. Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug’i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaNni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi. Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«O‘rta Osiyo xalqlar adabiyoti» fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimланади:

**Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib
taqsimланади.**

BALL	BAHO	TALABALARING BILIM DARAJASI
86-100	A`lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
55-70	qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish
0-54	qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik.

Fan bo‘yicha saralash 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi. Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi. Joriy JN va oraliq ON turlari bo‘yicha 55 bal va undan yuqori balni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig’indisiga teng. ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi. JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi. Talabaning semestrda JN va ON turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig’indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi. Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalarning O.N.da to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

T/n	KO‘RSATKICHLAR	ON ballari	
		Maksimal ball	Oraliq bali
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftalarining yuritilishi va to‘liqligi.	15	0-15
2	Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirish.	10	0-10
3	Og’zaki savol -javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo‘yicha	10	0-10
	Jami ON ballari	35	35

Talabalarning JNda to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

T/n	KO‘RSATKICHLAR	JN ballari		
		Mak. ball	J.N-1	J.N-2
1	Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg’ulotlardagi faolligi, amaliy mashg’ulot daftalarining yuritilishi va holati	15	0-7	0-8
2	Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi.	10	0-5	0-5
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-5	0-5
	Jami JN ballari	35	17	18

**Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida bo‘lib, yakuniy nazorat 30 ballik
“Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.**

T/n	Ko‘rsatkichlar	YaN ballari	
		Maksimal ball	O‘zgarish oralig‘i
1	Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
2	Jami YaN ballari	30	30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshiriladi, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan. Har bir

nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin. Yozma sinov bo'yicha umumiyo o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Dasturning informasion-metodik ta'minoti

Dasturdagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning «Muammoli ta'lim» texnologiyasining «Munozarali dars» metodidan foydalanish nazarda tutiladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T, 2008.
2. Absamiyev H. Turkiy xalqlar adabiyoti. SamDU nashri, 2004.
3. Davronova M. Turkiy xalqlar adabiyoti. SamDU nashri, 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон. 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni ("Xalq so'zi" gazetasi, 2017. 8-fevral).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risidagi qarori. "Xalq so'zi", gazetasi, 2017-yil, 12 aprel.
4. Мирзиёв Ш.М. Таңқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил якунлари ва 2018 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги

Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 16 январь, №11.

5. Homidov H. “Avesto” fayzlari. – Toshkent, 2001.
6. Avesto. Yasht kitobi. – Toshkent, 2001
7. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar adabiyoti. – Toshkent. 2005.
8. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. –Toshkent. 2006.
9. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, 2009.
10. Султон Валад. Маърифатнома. – Тошкент, 2011.
11. Румий. Ҳикматлар. – Тошкент, 2008.
12. Румий. Маснавий маънавий. – Тошкент, 2002.
13. Ch. Aytmatov. Oxir zamon nishonalari. – Toshkent, 2001.
14. Yoqubov O. Buyuk donishmand insonni eslab... - T, 2007.
15. Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. –Toshkent, 2011.

Elektron manbalar

1. <http://www.literatnre.Uz>
2. <http://w3vw.zivoiiet.uz>
3. <http://www.natHb.uz>
4. <http://www.zivouz.com>
5. <http://www.turonLib.uz>